हैं, पाँच, मैं हूँ, देंगे, दूँगा, लेंगी, घृणा, पुणर, अँगूठी, निबंध,

संयुक्त, किरण, क्षण, दान, निदान, कारण, भाषण, प्राण प्रेरणा, गंदा, आँसु, सुँड़, मुँह, दाँत, चुड़ियाँ, चिड़ियाँ, डिब्बियाँ, गाँव, क्याँ, कैची, ताँगा, पलंग, संगित, साँज, छलाँग, सिंह, झँसी, झंडा, निपुण, संध्या, ज्ञाता, प्रतिज्ञा, विज्ञान ।

5-mashq. O'qing. Burun unlili so'zlarni yozing.

नगर में, चारों ओर, हमारे संबंधी, मैं आऊँ, वे जायें, उन्हें देना, दोनों को, मुँह में रखा, लोगों को, पाँच वर्षों में, आते होंगे, अब वे ठीक हैं, वहाँ का समाचार, घंटा बजाना, आरंभ से अंत तक, ऊँचे वृक्ष पर, जंगल के वृक्ष से, वैज्ञानिक लोग, संसार का, गेहूँ और कपास, अनेक नदियाँ, यहाँ पहुँचा था, जा रहे हैं, जा रही थीं, हिंदी भाषा, उन दिनों से, पाँचवीं कक्षा की परीक्षा, अंधेरी रात, भारत का झंडा, दस दिन के अन्दर, सब प्रबन्ध करो, पुस्तक बन्द करें, खेतों की सिंचाई, अन्तिम बुँद, तालाब की नींव, गहरी नींद, विद्यार्थी का निबंध, कापियाँ खोलें, आधे घंटे में, वसंत का दिन, लाल रंग का, ईंटों का मकान, भैंस का दूध, ठंडा पानी, गाड़ी से जायेंगे, पाँच उदाहरण, कुछ नहीं बोले, क्षमा माँगी, दो टोपियाँ, तिरंगा झंडा

6-mashq. Devanagari harflarida yozing.

Yahã ão, vahã jão, idhar ba^ythẽ, udhar na jãiyẽ, merĩ kitãbẽ, bachchõ se kahẽ, pãth yãd karẽ, kahãniyã parhĩ, kãpiyã kholĩ, ye merã sambandhĩ he, vo hamãrĩ kakshã he, in sthãnõ par, un makãnõ mẽ, pustak ke pratham bhãg mẽ, ãgyã denã, shikshã pãnã, mũh dhoo, sambhav he, sanyukt rãshtr, bhãrat kã jhandã, hamãrã sangh, is mẽ kyã antar he, us ko shãnt karo, chintã mat kijiye, do vãkye likhe, tĩn naye shabd parho, shabdõ ko kãpĩ mẽ likhiye,

relgārī kā injan, tumbhē mālūm he, hā̃ mujhe mālūm he, ve kuchh nahī bole, kshamā mā̃gī, unhē bāhar jānā thā, krodh ānā, bhārat kī yātrā, videshī yātrī bhārat āte hē, vo bahut prasann he, āsū pōchho, hāthī ke dāt, hāthī ke dāt lambe hote hē, ye merā gāo he, ye pustakālay he, mīthe phal khilāye, ādherī rāt mē, sankat mē parā, sājh kā samay, ye merā kām nahī he, thore hī dinō mē, donō or se, yahā̃ āiyē, ye samāchār sunē, ye samāchār sunāyē.

7-mashq. न, ण, म, ड undoshlarini anusvara belgisini ishlatgan holda ko'chirib yozing.

अडक, दण्ड, बन्द, अङ्चल, परन्तू, किन्तू, घण्टा, ठण्डा, शान्ति, पङ्ख, अङ्ग, अण्डा, चिन्ता, गम्भीर, मन्त्री, पाण्डव, पण्डित, पङ्खी, अङ्जन, बुलन्द, निबन्ध, अन्तर, शान्त, झङ्झट, कङ्घी, सन्तान, सन्केत, तूरन्त, वयङ्जन, झण्डा, कुङ्जी, अन्दर, अत्यन्त, केन्द्र, लिङ्ग, अन्त, अन्तिम, डण्डा, अण्डा, सन्देह, आनन्द ।

YETTINCHI DARS

O‘ZLASHMA TOVUSHLAR. HINDIY TILI ALIFBOSI. VISARGA. URG‘U

Darsning maqsadi: O‘zlashma tovushlar va ularning yozilishi, visarga, tushunchalarining o‘ziga xosliklarini batafsil yoritib berish. Hindiy tilida ayrim tovushlarni talaffuz etish xususiyatlarini o‘rgatish. Urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya olish va so‘zlar talaffuzida uni qo‘llay olishni ta‘minlash. Shunigdek, hindiy tili alifbosini to‘liq yakunlab ularni tasniflash. Harflarni turlariga qarab ajratish va mavzu yuzasidan topshiriqlar berish.

Tayanch tushunchalar: O‘zlashma tovushlar, Visarga, Ayrim tovushlarni talaffuz etish xususiyatlari, urg‘u, hindiy tili alifbosi, unli harflar, undoshlar, tanglay undosh harflari, nafas undosh harflari, o‘zlashma harflar, sanskrit so‘zlarida uchraydigan harflar, yarim unililar.

Dars rejasi:

1. O‘zlashma tovushlar va ularning yozilishi
2. Hindiy tili alifbosining tasnifi
3. Visarga
4. Urg‘u

Hindiy tilida arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar ko‘plab uchraydi. Tabiiyki, so‘zlar bilan bir qatorda hindiy tilida mavjud bo‘lmagan tovushlar ham kirib kelgan. Bunday tovushlarni yozuvda ifodalash uchun devanagari alifbosida talaffuzi mazkur o‘zlashma tovushlarga yaqin bo‘lgan harflardan foydalanilgan. Odatda, bunday harflarning tagiga nuqta qo‘yib ishlatilgan, biroq hozirgi kunda ko‘pgina hollarda nuqta tushirib qoldiriladi.

«क़» harfi «k» tovushidan qattiqroq talaffuz etiladi. Uning talaffuzi o‘zbek tilidagi «q» tovushiga mos tushadi. Transkripsiyada u «q» harfi bilan belgilanadi. Misollar:

क़लम qalam, क़द qad, क़दम qadam,

क़िस्सा qissā, क़ीमत qīmat.

ख harfi o'zbek tilidagi «x» tovushiga yaqin bo'lgan tanglay orti tovushini anglatadi. Bu tovush transkripsiyada «x» harfi bilan belgilanadi. Misollar:

खूद xūd, **खून**, ,xūn, **खुश** xush,

खुशी xushī, **खिदमत** xidmat,

ग harfi tanglay orti tovushi hisoblanadi va u o'zbek tilidagi «g'» tovushiga mos tushadi. Bu transkripsiyada «g'» harfi bilan belgilanadi. Misollar:

बाग bāg', **गुलाम** g'ulām, **ग़लामी** g'ulāmī,

गरीब , g'arīb, **गरीबी** g'arībī.

फ़ harfi o'zbek tilidagi «f» tovushiga mos tushadi. Bu tovush transkripsiyada «f» bilan belgilanadi. Misollar:

फिल्म, film, **फ़िक्र**, fikr, **काफ़ी**, kāfī,

दफ़ा dafā, **दफ़तर** daftar.

ज़ harfining talaffuzi o'zbek tilidagi «z» tovushiga mos tushadi. U transkripsiyada «z» harfi bilan belgilanadi. Misollar:

मेज़ mez, **कागज़** ,qāg'az, **ज़रूर** zarūr,

जहाज़ , jahāz, **ज़ोर** zor.

Hindiy tili alifbosi

हिन्दी की अक्षरमाला

Hindiy tili alifbosi devanagari deb ataladi. Bu alifbo qadimgi hind tili - sanskritdan olingan. Unda harflar hosil bo'lish o'rniga ko'ra joylashgan. Alifboning boshidan unlilar o'rin olgan, so'ngra hosil bo'lish o'rnini va usuliga ko'ra undoshlar joylashgan. Qadimgi hind tilida 33 ta undosh harf bo'lgan. Sanskritda mavjud bo'lmagan **r** va **rh** tovushlarini anglatish uchun alifboga **इ** va **ढ़** harflari kiritilgan. Hindiy tiliga arab va fors so'zlarining kirib

kelishi bilan undoshlar soni ham ortib borgan. Shunday qilib hozirgi paytda hindiy tili alifbosi 11 ta unli va 40 ta undosh harflardan iboratdir.

HINDIY TILI ALIFBOSI

Unli harflar

सवर

अ आ इ ई उ ऊ

ऋ ए ऐ ओ औ

Undosh harflar

व्यंजन

क् ख् ग् घ् ङ्

च् छ् ज् झ् ञ्

ट् ठ् ड् ढ् ङ् ण्

त् थ् द् ध् न्

प् फ् ब् भ् म्

य् र् ल् व्

श् ष् स् ह्

क् ख् ग् ज् फ्

Hindiy tili alifbosida har bir harf o'z nomiga ega bo'lib, u tegishli harfga कार so'zini qo'shib ataladi. Shunday qilib «अ» harfi अकार deb, क - ककार, द - दकार deb ataladi va h. k.

Undoshlarning har bir guruhi nomini o'sha qatorida birinchi turgan harfga वर्ग (toifa, guruh) so'zini qo'shib aytiladi. Misol uchun birinchi qator कवर्ग, ikkinchi qator चवर्ग va h. k. Undoshlarning dastlabki besh qatori shu yo'sinda guruhlarga bo'linadi. Ulardan so'ng yarim unlilar keladi va ular अन्तस्थ deb ataladi. Oxirgi qator biror nomga ega emas, biroq uni कवर्ग deb atash mumkin.

क, ष, क्ष, ज harflari faqat sanskrit so'zlarida uchraydi.

ङ, ण, ञ, ड va ढ harflari so'z boshida uchramaydi.

E s l a t m a: O'zlashma tovushlar bilan boshlanuvchi so'zlarni lug'atlarda ularga mos tushadigan asosiy harf bo'limidan qidirish kerak, ya'ni कलम so'zini क harfi bo'limidan, फ़र्श so'zini फ harfi bo'limidan va h. k. O'zlashma tovushlar so'z o'rtasida yoki oxirida kelgan bo'lsa, ular lug'atda alifbo tartibida joylashadi. Misollar:

मगर magar

मगरिब mag'rib

मज़दूर mazdūr

मजबूर majbūr

मज़ाक mazāq

मज़ाल majāl va h. k. z.

क, ख, ग, ज, ञ va फ़ harflari faqat arab va fors so'zlarida uchraydi.

Visarga

Visarga belgisi chuqur nafas kuchi bilan hosil qilinadigan tovushni bildiradi. Bu belgi soʻz yoki boʻgʻin oxiriga vertikal qoʻsh nuqta qoʻyish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada visarga belgisi «h» harfi bilan belgilanadi. Misollar:

प्रायः prāyah, **प्रातः** prātah

प्रातःकाल prāthkāl, **पुनः** punah.

Visarga asosan sanskrit soʻzlarida ishlatiladi.

Ayrim tovushlarni talaffuz etish xususiyatlari

1. Unli bilan tugagan uch undosh harfli soʻzlarda, shuningdek, toʻrt undosh harfli soʻzlarda ikkinchi undoshdan soʻng qisqa «a» tovushi talaffuz etilmaydi. Misollar:

कमरा kamrā **नफ़रत** nafrat

कपड़ा kaprā **ग़फलत** gʻaflat

लड़का larkā **ख़िदमत** xidmat

तितली titlī **मुमताज़** mumtāz

पटरी patrī **सरसरी** sarsarī

बकरी bakrī **समझाना** samjhānā

2. Agar h undosh tovushi boʻgʻin boshida kelmagan boʻlsa, undan oldin kelgan «a» tovushi biroz kengroq, yaʼni «e» ga yaqinroq talaffuz etiladi.

Misollar: **शहर** shehr, **नहर** nehr, **गहरा** gehrā

Taqqoslang: **बहू- बहन** , **रहा - रहना**

लहू - लहर, **कहा - कहना**

3. Agar «उ» va «इ» tovushlari «ह» dan oldin kelib, u bilan bir boʻgʻinni tashkil etsa, bu tovushlar tegishli holda «o» va «e» ga oʻxshash, biroq qisqaroq talaffuz etiladi. Misollar:

तुहमत tohmat **ज़िहन** zehn

मुहताज़ mohtāj **ज़िहनी** zehnī

Urg'u

Hindiy tili so'zlarida umuman har bir bo'g'in ma'lum darajada kuch bilan, urg'uli talaffuz etilsa-da, ulardan biriga asosiy urg'u tushadi.

So'zda asosiy urg'uning qaysi bo'g'inga tushishi quyidagi qoidalarga ko'ra aniqlanadi.

1. Agar so'z unli tovush bilan tugagan bo'lsa, u holda asosiy urg'uni aniqlashda so'nggi bo'g'in hisobga olinmaydi. Masalan:

सुन्दरता sundartā so'zida so'nggi bo'g'in tā hisobga olinmaydi.

2. Agar so'zda faqat qisqa unlilar ishtirok etgan bo'lsa, urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Misollar:

नगर - nāgar, **मकखन** - mākhan, **पुस्तक** - pūstak,

सुन्दरता - sūndar-tā, **जिंदगी** - zīnda-gī.

3. Agar so'zda qisqa unlilar bilan bīrga cho'ziq unli ham ishtirok etsa, urg'u cho'ziq unliga tushadi. Misollar:

संसार sansār, **औरत** ā'rat, **भारत** bhārat, **जमाना** zamānā,

4. Agar so'zda bir nechta cho'ziq unlilar ishtirok etsa, urg'u ularning oxirgisiga tushadi. Misollar:

विदेशी -vidēshī, **हैदराबाद** Ha'ydarābād, **हैदराबादी** ha'ydarābādī.

E s l a t m a: Fe'llarda urg'u fe'l asosiga tushadi. Sodda ort ko'makchilar urg'usiz talaffuz etiladi.

1-mashq. O'qing.

कलम, क्रिस्सा, कीमत, कीमती, कस्ट, कस्टी, कौम, कौमी,
वक्त, नाहक, नुकता, नुकसान, बकाया, अकल, बाकी ;

गज़ल, गज़ब, गम, गमखोर, गमखोरी, गलत, गलती, गैर, गोता, बगैर, चिराग, दगा, दगाबाज़, दिमाग, कागज़, बाग, बगीचा ;

ज़ार, ज़ोर, ज़िन्दा, ज़िन्दगी, ज़बान, ज़मीन, ज़ीरा, जख्म, जमाना, बाज़ार, मेज़, गुज़ारा, चीज़, तेज़ी, दर्ज़ी, दराज़, नज़र, मज़दूर ;

खराब, खाना, खबर, खम, खयाल, खाली, खामोशी, खुशी, तख्ता, पुख्ता, बखूबी, बखिशश, निखर, नाखून, बख्त, तनख्वाह, फ़सल, फ़िक्र, फ़ैसला, फ़ौजी, फ़ौवारा, फ़ौरन, फ़किर, दफ़ा, नफ़रत, तरफ़, ज़फ़र, दफ़तर, नफ़ीस, हाफ़िज़ ।

2-mashq. क, ख, ग, ज़ va फ़ harflarini ikki qatordan yozing.

3-mashq. So‘zlarni yozing va transkripsiyalang.

प्रायः, प्रातः, प्रातःकाल, अतः, निःशंक, निःशकत, निःशुल्क, पुनःस्थापित, पुनः, पुनः - पुनः, पुनःरचना, पुनःशिक्षा, पुनःसंगठन, दुःसाहस, दुःसाहसी, दुःस्वपन, दुःस्वभाव, दुःशील, दुःखित ।

4-mashq. So‘zlarni ko‘chirib yozing. Urg‘uli bo‘g‘inlarning tagiga chizing.

काला, पानी, यहाँ, कहाँ, नहीं, जनाब, किताब, मकान, ज़बान, जवाब, कुमारी, पिता, कला, तालाब, तारीख, नाना, दादा, माता, साहब, गाजर, नाटक, लड़की, जनता, कहानी, तारीफ़, आकाश, सड़क, नगर, गलत, गलती, सरल, बरस, बाहर, कली, आसान, निशान, निशानी, नीचा, नाजूक, नाजूकी, खारिज, खुश्क, खिड़की,

कुसुर, नीलाम, नीलम, दीवार, दुकान, पड़ोसी, बड़ा, बुरा, कपड़ा, कीचड़ मूली, गोभी, गाजर, खीरा, कलम, नवाब, जवाब, जीवित, जीवन, पुरुष बहन, शहर, नज़ारा, नज़ीर, बहुत, महीना, सप्ताह, हफ़ता, अभ्यास, वाक्य, नियम, समाचार, बेटी,बेटे, आराम, आरम्भ, कृषि, ठंडा, झंडा ।

5-mashq. O‘qing. Ikkinchi undoshdan keyin a tovushi talaffuz etilmaydigan so‘zlarni ko‘chiring.

खिलाना, सुलाना, लड़का, मेज़, लड़की, चीज़, पिलाना, कमरा, कमरे, जाना, कपड़ा, कपड़ों से, आना, करना परदा, परदे को, ज़माना, ज़बानी, काफ़िर, बहना, नहर, रहना, रहा, खिलाफ, नज़राना, खाकी, ज़मीन, पढ़ना, रोना लिखना, खाना, लाना, माँगना, पाना, ज़िन्दा, नमक, नामक, शासन, शादी, सामान, ज़रूर, जहाज़, क्रीमत, पुनः, अतः, प्रायः, आसानी, अपना, अपनी, वाप्स, जलदी, मुकुत, विमला, सरोज, ग़रीब, रहम, रहीम, कहानी, कहना, नादिर, खबर, खुराक, खूबी, खूशी, कैफ़, तख़्ता, सख़्त, रचना, नफ़रत, तजवीज़, करीब, कयाम, तरीका, ग़ालिब, पटसन, बादशाह, कानून, जलसा, ग़लती, मुमताज़, खिदमत खिड़की, दालान, मछली, नतीजा, मेहमान, उपदेश, रहमान, तसवीर ।

6-mashq. Gaplarni o‘qing.

यह मेरी पुस्तक है । वह तेरी कापी है । यह हमारा मकान है । हम उज़बेक हैं । आप शिक्षक हैं । ये नीले फूल हैं । वे लाल फूल हैं । बच्चा रोता है । वह रोटी खाता है । हम भाषा सीखते हैं

। यह कहानी पढ़ो । वह खबर सुनाओ । मेज़ पर बैठो । जहाज़ से जाओ । यह काला तख़्ता है । तख़्ते पर लिखो । इधर आओ । उधर जाओ । यह खाना न खाओ । खिड़की खोलो । दरवाजा बंद कीजिये । जल्दी से वापस आना । वह प्रायः आता है । प्रातःकाल आयेगा । काफ़ी है । तुम्हारा जवाब ठीक है । तुम्हारा उत्तर ग़लत है। मुझ से प्रश्न पूछो । अपना कलम मेज़ पर रखो । कोई ग़लती नहीं है । बाहर निकलो । अन्दर आओ । नमस्ते कहो । बस, काफ़ी है । अपनी जगह पर बैठो ।

GRAMMATIKA

SAKKIZINCHI DARS आठवाँ पाठ

Mavzu: KISHILIK VA KO'RSATISH OLMOSHLARI.

होना FE'LINING HOZIRGI ZAMON SODDA SHAKLI.

SODDA DARAK GAPLARDA SO'ZLARNING JOYLASHISH TARTIBI

Darsning maqsadi: Ushbu mavzuning maqsadi talabalarga asosiy o'rganilayotgan til (hindiy tili)da kishilik va ko'rsatish olmoshlarini tushuntirish, hona fe'lining hozirgi zamon soda shakllari bilan tanishtirish.

Sodda darak gaplarda so'zlarning joylashishini tushuntirish.

Tayanch tushunchalar: olmosh, kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, hona fe'li, gap bo'laklari, ega, kesim, to'ldiruvchi va h.k.

Darsning rejasi:

1. Kishilik olmoshlari

2. Ko'rsatish olmoshlari

3. Hona fe'lining hozirgi zamon sodda shakllari.

4. Sodda darak gapning tuzilishi.

Hindiy tilida quyidagi kishilik olmoshlari mavjud.

Shaxs	birlik	ko'plik
पुरुष	एकवचन	बहुवचन
I	मैं men	हम biz
II	तू sen	तुम siz, sen आप Siz
III	यह bu वह u	ये bular वे ular

तू olmoshi o'ta qo'pollik yoki aksincha erkalash ma'nosida ishlatiladi. Bu olmosh nisbatan kam ishlatiladi.

तुम olmoshi oddiy xushmuomalalikni anglatadi. **तुम** olmoshini yoshlar va ijtimoiy holati teng bo'lgan shaxslar, o'rtoqlar, aka-uka, opa-singillar, o'zaro munosabatda, shuningdek, er o'z rafiqasiga, ota-onalar bolalariga nisbatan ishlatishi mumkin. Bu olmosh bir shaxsga yoki ko'pchilikka nisbatan ham ishlatilishi mumkin.

आप – Siz bo'rttirilgan xushmuomalalikni anglatadi. **आप** olmoshini kichiklar kattalarga, ijtimoiy ahvoli o'zidan yuqori bo'lgan shaxslarga, bolalar ota-onalariga nisbatan va shunga o'xshash boshqa hollarda ishlatiladi. **आप** o'ziga xos xushmuomalalikning belgisi bo'lib, odatda, o'qimishli va ziyolilar o'zaro munosabatda ham shu olmoshni ishlatishadi. **आप** olmoshi bir shaxs yoki ko'pchilikka nisbatan ham ishlatiladi.

यह va **वह** uchinchi shaxs olmoshlari bir-biridan shu bilan farq qiladiki, **यह** – yaqinda turgan shaxsga nisbatan ishlatiladi. **वह** – olmoshi esa uzoqda turgan yoki so'zlashuv paytida mavjud bo'lmagan shaxsga yoki buyumga nisbatan ishlatiladi. Xuddi shunday farq ko'plikdagi **ये** va **वे** olmoshlariga ham tegishlidir. Bu olmoshlar bir shaxs yoki ko'pchilikka nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Bir shaxsga nisbatan qo'llanilganda mazkur kishiga nisbatan alohida hurmat belgisini anglatadi.

Ko'rsatish olmoshlari

संकेतवाचक सर्वनाम

Ko'rsatish olmoshlariga quyidagilar kiradi:

एकवचन	बहुवचन
यह – <i>bu</i>	ये – <i>bular</i>
वह – <i>u</i>	वे – <i>ular</i>

Birlikdagi यह va वह olmoshlarining bir-biridan farqi shuki, यह – yaqinda turgan shaxs yoki buyumni, वह esa uzoqda turgan yoki mazkur paytda mavjud bo‘lmagan buyum yoki shaxsni anglatadi. Xuddi shunday farq ko‘plikdagi ये va वे olmoshlariga ham tegishlidir. Masalan:

यह पुस्तक bu kitob

वह पुस्तक u kitob

ये विद्यार्थी bu talabalar

वे विद्यार्थी u talabalar

होना Fe'lining hozirgi zamon sodda shakli

होना «bo'lmoq» fe'li hozirgi zamonda quyidagi sodda shakllarga ega:

पुरुष	एकवचन	बहुवचन
1- उत्तम	मैं हूँ men/-dir/man	हम हैं biz/-dir/miz
2- मध्यम	तू है sen/-dir/san	तुम हो sen/-dir/san, siz/-dir/siz आप हैं Siz/-dir/siz
3- अन्य	यह } bu } } है } वह u } -(dir)	ये } bular/-dirilar } हैं वे ular/-dirilar

मैं विद्यार्थी हूँ – men talaba/-dir /man

तू विद्यार्थी है – sen talaba/-dir/san

यह } विद्यार्थी है – bu, u talaba/-dir/
वह }

हम विद्यार्थी हैं – biz talaba/-dir/miz

तुम विद्यार्थी हो – sen, talaba /-dir/san, siz talaba /-dir/siz

आप विद्यार्थी हैं – siz talaba/- dir/siz

ये } विद्यार्थी हैं – bular, ular talaba/-dir/lar
वे }

होना fe'li hindiy tilida ko'p ishlatiladi. U gapda mustaqil fe'l, bog'lovchi fe'l, yordamchi fe'l vazifalarida ishlatilishi mumkin.

Sodda darak gaplarda so'zlarning joylashish tartibi

Sodda darak gaplarda birinchi o'rinda ega, undan so'ng kesim keladi. Agar kesim ot-kesim bilan ifodalangan bo'lsa, dastlab uning ot qismi, so'ngra bog'lovchi fe'l keladi.

मैं अध्यापक हूँ – men o'qituvchi/-dir/ man..

Hindiy tilida bog'lovchi fe'lni tushirib qoldirish mumkin emas, ya'ni मैं अध्यापक deb bo'lmaydi, मैं अध्यापक हूँ deb yozish va aytish kerak.

Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. M-n:

राज मेरा मित्र है – Raj mening do'stim/- dir/

मेरा मित्र विद्यार्थी है – Mening do'stim talaba/-dir/

O'rin holi unga mantiqiy urg'u tushish yoki tushmasligiga qarab, kesim oldida yoki ega oldida kelishi mumkin. M-n:

राज वहाँ है – Raj u yerda /- dir/

वहाँ राज है – U yerda Raj.

So'roq gaplar

प्रश्नवाचक वाक्य

So'roq gaplar क्या yuklamasi, hamda so'roq so'zlari yordamida tuziladi. क्या yuklamasi umumiy savolni tuzishda ishlatilib, u gapning boshiga qo'yiladi. M-n:

क्या तुम विद्यार्थी हो ? Sen talabamisan?

क्या यह कलम है ? Bu ruchkami?

Umumiy savolni क्या yuklamasi qo'ymasdan intonatsiya (ohang) yordamida ham tuzish mumkin. M-n:

यह कलम है? Bu ruchkami?

Maxsus savollar क्या nima कौन kim किसका kimning कहाँ qayerda kabi so'roq so'zlari yordamida tuziladi. Bunda so'zlarning joylashish tartibi darak gaplardagidek bo'ladi. M-n:

आप कौन हैं ? Siz kimsiz?

कौन विद्यार्थी है? Kim talaba/dir/?

यह क्या है ? Bu nima?

यह किसका कलम है ? Bu kimning ruchkasi?

यह कलम किसका है ? Bu ruchka kimniki?

राज कहाँ है? Raj qayerda?

कहाँ पानी है ? Qayerda suv bor?

Hindiy tilida कौन? kim So'roq olmoshi faqat odamlarga tegishli so'roq gaplarda ishlatiladi. Boshqa hollarda क्या? nima So'roq olmoshi ishlatiladi. M-n:

आप कौन हैं? Siz kimsiz?

मैं विद्यार्थी हूँ – Men talabaman

यह क्या है ? Bu nima?

यह बेग है Bu sunka/-dir/

यह क्या है ? Bu nima?

यह घोड़ा है Bu ot /- dir/

क्या, कौन, किसका – so‘roq olmoshlari

कहाँ – so‘roq ravishi

क्या – so‘roq yuklamasi

Tasdiq va inkor ma’nolarini anglatish

Tasdiq javobi **हाँ** tasdiq yuklamasi yordamida ifodalanadi va u javob to‘liq bo‘lgan hollarda gapning boshiga qo‘yiladi. M-n:

क्या यह पुस्तक है ? Bu kitobmi?

हाँ, यह पुस्तक है – Ha, bu kitob/- dir/.

हाँ – Ha.

Odatda xushmuomalalikni bo‘rttirish maqsadida **हाँ** yuklamasi bilan **जी** hurmat yuklamasi ham birga ishlatiladi. M-n:

क्या यह कापी है ? Bu daftarmi?

जी हाँ, यह कापी है – Ha, bu daftar.

जी हाँ – Ha.

जी नहीं – Yo‘q.

Inkor javobi **नहीं** yo‘q inkor yuklamasi yordamida ifodalanadi.

Hurmat ma’nosini bo‘rttirish uchun bu yuklama ham **जी** hurmat yuklamasi bilan birga ishlatiladi. Javob to‘liq holda bo‘lsa, **नहीं** gap boshida va kesimdan oldin ishlatiladi. M-n:

क्या यह समाचार-पत्र है? Bu gazetami?

जी नहीं, यह समाचार-पत्र नहीं है – Yo‘q, bu gazeta emas.

जी नहीं – Yo‘q.

हाँ, जी हाँ – Tasdiq yuklamalari

नहीं, जी नहीं – inkor yuklamalari.

Otlarning jinsi

संजा का लिंग

Hindiy tilida ikkita grammatik jins mavjud: **पुल्लिंग** – *pulling* muzakkar jinsi va **स्त्रीलिंग** – *striling* muannas jinsi. Hindiy tilida otlarning jinsini anglatuvchi ko'rsatkichlar mavjud emas. Shu sababli otlarning jinsini ularning ma'nolari bilan birga yodlab olish kerak. Lug'atlarda otlarning jinsi shartli ravishda quyidagicha ko'rsatiladi.

कमरा *m-r.* (muzakkar) **xona**, **पुस्तक** *m-s.* (muannas) **kitob**.

बातचीत

- आप कौन हैं?
- मैं विद्यार्थी हूँ।
- क्या आप भारतीय हैं?
- जी हाँ, मैं भारतीय हूँ।
- आपका नाम क्या है ?
- मेरा नाम सुरेश है।
- यह कौन है ?
- यह करीम है।
- वह कौन है ?
- वह आज़ाद है।
- क्या करीम उज़बेक है?
- जी हाँ, करीम उज़बेक है।
- आज़ाद भी उज़बेक है ?

- जी हाँ, आज़ाद भी उज़बेक है। ये दोनों उज़बेक हैं।
- क्या करीम विद्यार्थी है?
- जी हाँ, करीम विद्यार्थी है।
- क्या आज़ाद भी विद्यार्थी है?
- जी हाँ, वह भी विद्यार्थी है। ये दोनों विद्यार्थी हैं।
- क्या आज़ाद और करीम मित्र हैं?
- जी हाँ, वे दोनों मित्र हैं।
- क्या करीम तुम्हारा भी मित्र है?
- जी नहीं, मेरा मित्र अनवर है।
- अनवर कौन है?
- अनवर विद्यार्थी है।
- क्या तुम्हारा मित्र रूसी है?
- जी नहीं, मेरा मित्र रूसी नहीं है, उज़बेक है।
- आप कौन हैं?
- मैं उज़बेक हूँ।
- और आप कौन हैं।
- मैं उज़बेक हूँ।
- करीम, यह क्या है?
- यह पुस्तक है।
- यह किसकी पुस्तक है?
- यह आपकी पुस्तक है।
- वह किसकी पुस्तक है?
- वह मेरी पुस्तक है।
- आज़ाद, आपकी पुस्तक कहाँ है?
- मेरी पुस्तक मेज़ पर है।

- मेरी पुस्तक कहाँ है?
- आपकी पुस्तक बेग में है।
- आपका बेग कहाँ है?
- मेरा बेग यहाँ है।
- आपके बेग में क्या-क्या है?
- मेरे बेग में पुस्तक, कापी, कलम, पेंसिल हैं।
- मेरा बेग कहाँ है?
- आपका बेग मेज़ पर है।
- अनवर, यह क्या है?
- यह कलम है।
- यह किसका कलम है?
- यह मेरा कलम है।
- और वह किसका कलम है?
- वह भी मेरा है।
- क्या यह कलम भी आपका है?
- जी नहीं, यह मेरा नहीं है। आपका है।
- आपका बेग कहाँ है?
- मेरा बेग यहाँ, मेज़ पर है।
- मेरा कलम कहाँ है?
- आपका कलम आपकी मेज़ पर है।
- यह क्या है?
- यह शब्दकोश है। यह हिन्दी - उज़बेकी शब्दकोश है।
- क्या यह भी शब्दकोश है?
- जी नहीं, यह शब्दकोश नहीं है। यह पाठ्य-पुस्तक है।
- पाठ्य-पुस्तक कहाँ है?

- वह वहाँ, मेज़ पर है।
- सलीमा, वहाँ, मेज़ पर क्या-क्या है?
- वहाँ, मेज़ पर पुस्तक, कापी, हिन्दी-उज़बेकी शब्दकोश, पाठ्य-पुस्तक, पेंसिल, कलम हैं।

अभ्यास १ 1-mashq. Bo'sh qoldirilgan joylarga होना fe'lining hozirgi zamon sodda shakllarini qo'ygan holda gaplarni ko'chirib yozing va tarjima qiling.

१. वह कौन ... ? वह विद्यार्थी... – . २. मैं उज़बेक नहीं...। मैं रूसी... ।
३. क्या आप भी उज़बेक...ü जी नहीं, मैं उज़बेक नहीं... । मैं भारतीय... ।
४. क्या आपका मित्र विद्यार्थी... ü जी हाँ, मेरा मित्र विद्यार्थी...। ५. वे विद्यार्थी...। ६ हम अध्यापक...। ७. यह पुस्तक...। ८. वह हिन्दी – उज़बेकी शब्दकोश... ९. वे रूसी विद्यार्थी...। १०. क्या वह आपका मित्र...ü जी नहीं। ११. वह भी उज़बेक...। १२. हम दोनों भारतीय...। १३. ये दोनों मित्र...। १४. आपका बेग यहाँ, मेज़ पर...। १५. तुम कौन...ü मैं विद्यार्थी...। १६. क्या तुम भी भारतीय. ...? जी हाँ। १७. हम विद्यार्थी...।

अभ्यास २ – Hindiy tiliga tarjima qiling.

1. Men talabaman. 2. Siz o'qituvchisiz. 3. Ular talabalardir. 4. U sizning do'stingizmi? Ha, u mening do'stim. 5. Sizning do'stingiz o'zbekmi? Yo'q, u hindistonlik. 6. Sizning o'qituvchingiz kim? Mening o'qituvchim o'zbek. 7. U bu yerdami? Ha, u bu yerda. 8. Ular ikkovi o'qituvchi. 9. Bu kimning sumkasi? Bu sizning sumkangiz. 10. Bu sizning kitobingizmi? Yo'q, bu mening kitobim emas. 11. Stolda kimning lug'ati? Stoldagi lug'at meniki. 12. Bu kimning stoli? 13. Siz ham talabamisiz? Ha, men ham talabaman. 14. U ham sizning do'stingizmi? Yo'q. 15. Men o'zbekman. 16. Men rusman. 17. U mening do'stim. 18. Bu kimning ruchkasi? Bu mening ruchkam.

19. Bu mening daftarim. 20. Mening daftarim u yerda, stolda. 21. Stolda nima bor? Stolda ruchka va daftar bor. 22. Bu darslikmi? Yo'q, bu lug'at. 23. Darslik sizning sumkangizda. 24. Hindiycha-o'zbekcha lug'at mening papkamda. 25. Mening papkamda daftar, kitob, ruchka va qalam bor.

अभ्यास ३ – Bo'sh joylarni kishilik va ko'rsatish olmoshlari bilan to'ldirib gaplarni o'qing.

१ . . . विद्यार्थी हूँ। २ . . . मेरा मित्र है। ३ . . . आध्यापक हैं। ४ . . . दोनों उज़बेक हो। ५ . . . हिन्दी-उज़बेकी शब्दकोश है। ६ . . . किसकी पुस्तक है? क्या . . . भी आपकी कापी है? जी हाँ। ८ क्या . . . आपका अध्यापक हूँ? जी नहीं। ९ क्या . . . आध्यापक हैं? जी हाँ, . . . अध्यापक हैं। १० . . . कौन है? . . . मेरा मित्र राज है। ११ . . . क्या है? . . . कलम है?। १२ . . . कौन हो? . . . विद्यार्थी हूँ। १३ . . . उज़बेक नहीं हूँ, रूसी भी नहीं हूँ। १४ . . . दोनों विद्यार्थी हो? जी हाँ। १५ क्या . . . विद्यार्थी है? जी नहीं।

अभ्यास ४ – Quyidagi gaplarni o'qing va og'zaki tarjima qiling.

१. मैं अध्यापक हूँ। २. वे उज़बेक हैं। ३. तुम भी उज़बेक हो। ४. यह किसका कलम है? यह मेरा कलम है। ५. क्या यह कलम है? जी नहीं, यह पेंसिल है। ६. पेंसिल कहाँ है? पेंसिल वहाँ, मेज़ पर है। ७. मेरी कापी कहाँ है? आपकी कापी आपके बेग में है। ८. क्या यह आपका मित्र है? जी हाँ, वह मेरा मित्र है। ९. तुम्हारा मित्र कौन है? मेरा मित्र अनवर है। १०. क्या आपका मित्र उज़बेक है? जी हाँ। ११. यह पाठ्य-पुस्तक किसकी है? यह पाठ्य-पुस्तक आपकी है। १२. आपकी मेज़ पर क्या-क्या है? मेरी मेज़ पर कापी और कलम हैं। १३. हम दोनों विद्यार्थी हैं। तुम कौन हो? मैं भी

विद्यार्थी हूँ। १४. क्या यह मेरी पेंसिल है? जी नहीं, यह आपकी पेंसिल नहीं है, मेरी पेंसिल है। १५. हिन्दी-उज़बेकी शब्दकोश वहाँ, मेज़ पर नहीं है। वह कहाँ है? वह यहाँ, बेग में है।

अभ्यास ५ – Savollarga javob bering.

यह शब्दकोश किसका है ?	क्या यह भी शब्दकोश है ?
क्या तुम भारतीय हो?	क्या हम अध्यापक हैं ?
आपकी मेज़ पर क्या-क्या है ?	वहाँ कौन है ?
क्या वे दोनों मित्र हैं ?	क्या करीम आपका मित्र है ?
मेरा कलम कहाँ है ?	क्या आपकी पेंसिल मेज़ पर है ?
क्या वह कापी है ?	क्या मेरी पुस्तक वहाँ नहीं है ?
क्या तुम विद्यार्थी हो ?	आपके बेग में किसकी कापी है ?

अभ्यास ६ – So‘z va so‘z birikmalaridan gaplar tuzing.

मेरे बेग में, मेज़ पर, किसका, हिन्दी-उज़बेकी शब्दकोश, दोनों, आपकी पुस्तक, मेरी पाठ्य-पुस्तक, कलम और पेंसिल, वहाँ, अध्यापक।

अभ्यास ७ – Hindiy tiliga tarjima qiling.

1. Mening do‘stim rus. 2. Men o‘zbekman. U ham o‘zbek. Biz do‘stmiz. 3. Sizning kitobingiz u yerdami? Yo‘q, u u yerda emas. U Sizning stolingizda. 4. U yerda nima bor?. U yerda stol bor. 5. Ular bu yerdami? Ha. 6. Sizning hindiycha-o‘zbekcha lug‘atingiz bu yerda emas. U mening stolimda. 7. Bu mening stolimmi? Yo‘q, bu sizning stolingiz emas. 8. Men sizning o‘qituvchingizmanmi? Yo‘q. 9. U ham mening do‘stim. 10. Ular ikkalovi talabalaridir. 11. Men talabaman. 12. Siz o‘qituvchisiz. 13. Biz talabalarmiz. 14. Mening ruchkam qayerda? Sizning ruchkangiz papkangizda. 15. Bu qalammi? Ha, bu qalam. 16. Bu kitob. 17. Sizning do‘stingiz kim? Mening do‘stim hindistonlik.

18. Siz ham talabamisiz? Yo‘q, men talaba emasman. Men o‘qituvchiman. 19. Mening papkamda nima bor? Sizning papkangizda kitob, daftar va ruchka bor. 20. Stolda qalam, ruchka va darslik bor. 21. Bu lug‘at meniki emas. 22. Bu darslik Sizniki. 23. Sizning do‘stingiz hindistonlikmi? Ha, u hindistonlik. 24. Sizning daftaringiz qayerda? Mening daftarim u yerda, sizning stolingizda.

अभ्यास ८ – Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

१. यह ... पुस्तक है। २. अनवर ... मित्र है। ३. मेरे ... में कापी नहीं है। ४. आपका हिन्दी – उज़बेकी शब्दकोश ... पर नहीं है। ५. आपका मित्र ... है? मेरा मित्र ... है। ६. वे ... उज़बेक हैं। ७. यहाँ, मेज़ पर ... पुस्तक है? यह ... पुस्तक है। ८. यह पाठ्य-पुस्तक ... है? यह पाठ्य-पुस्तक ... है। ९. क्या यह मेरा ... है? जी नहीं, यह आपका नहीं है, मेरा है। १०. मेज़ पर ... है? मेज़ पर ... और ... हैं। ११. आपका मित्र ... है? मेरा मित्र ... है। १२. वे ... रूसी विद्यार्थी हैं। १३ ... दोनों मित्र हो। १४. हम ... अध्यापक हैं।

अभ्यास ९ – So‘z birikmalarini tarjima qiling.

मेरा मित्र, मेरी कापी, मेरा शब्दकोश, आपकी पाठ्य-पुस्तक, आपका विद्यार्थी, आपका अध्यापक, आपके बेग में, मेरी मेज़ पर, कापी और कलम, मेरा कलम, तुम दोनों, यह पेंसिल, वह कापी, वे भारतीय



यह घर है। घर में दो कमरे हैं। कमरे में मेज है। मेज पर किताबें हैं। घर में आँगन है। आँगन में पेड़ है। पेड़ के नीचे गाय है। गाय के सामने घास है। गाय के पास बालटी है। बालटी में पानी है। बालटी गाय के पास है।

3. “बाहर, अंदर, ऊपर, नीचे, सामने, नजदीक, बाद”

Ot

Ravish

- | | |
|-----------------------------------|---|
| 1. घर के बाहर हमारी गाड़ी हैं। | 1. बाहर जओ। |
| 2. कमरे के अंदर कुछ मेजें हैं। | 2. अंदर जओ। |
| 3. अलमारी के ऊपर है। | 3. ऊपर देखो। |
| 4. कपड़े के नीचे है। | 4. वह नीचे रहती है। |
| 5. मेरा घर दुकान के सामने है। | 5. वह सामने रहता है। |
| 6. हमारा स्कूल दुकान के नजदीक है। | 6. वह नजदीक रहता था। |
| 7. कल के बाद मेरे पास समय है। | 7. दस साल बाद दिल्ली बहुत बदल रही होगी। |

Qism 4. रसोई

वह रसोईघर है। रसोईघर में चूल्हा है। रसोईघर में बहुत बर्तन हैं। रसोईघर में दो नल हैं। रसोईघर में सब्जियाँ हैं। रसोईघर में एक जाकू है। रसोईघर में एक तवा है। रसोईघर में पतीला है।

कतौ : यह क्या है?




बोरी : यह चिमटा है।

कतौ : यह क्या है?




बोरी : यह गिलास है।

कतौ : यह क्या है?



बोरी : यह कटोरी है।

कातो : यह क्या है?



बोरी : यह थाली है।

कातो : यह क्या है?



बोरी : यह चमचा है।

कातो : ये क्या हैं?



बोरी : ये चम्मच हैं।

कातो : वह क्या है?

बोरी : वह डब्बा है।

कातो : उसमें क्या है?

बोरी : उसमें चावल है।

कातो : डब्बा कहाँ है?

बोरी : डब्बा अलमारी में है।

कातो : अलमारी कहाँ है?

बोरी : अलमारी दरवाजे के सामने है।

कातो : वह क्या है?

बोरी : वह बड़ा डब्बा है।

कातो : उस डब्बे में क्या है?

बोरी : उस डब्बे में आटा है।

कातो : प्लेट कहाँ है?

बोरी : प्लेट मेज पर है।

कातो : चम्मच कहाँ है?

बोरी : चम्मच प्लेट के पास है।



कातो : ये क्या हैं?

बोरी : ये मसालादानियाँ हैं।

कातो : इनमें क्या हैं?

बोरी : इनमें मसाले हैं।

यह हल्दी है। यह मिर्च है। यह धनिया है। यह जीरा है। यह नमक है।

TO‘QQIZINCHI DARS

नौवाँ पाठ

INFINITIV. FE‘L ASOSI. BUYRUQ MAYLI. MUROJAAT KELISHIGI

Darsning maqsadi: Ushbu mavzuning maqsadi talabalarga asosiy o‘rganilayotgan til(hindiy tili)da infinitiv nima, uning yasalishi, fe‘l asosi, buyruq mayli shakllarining yasalishini atroflicha tushuntirish. Murojaat kelishigining yasalishini ko‘rsatish, mavzu yuzasidan topshiriqlar berish.

Tayanch tushunchalar: infinitiv, fe‘l, asos, mayl kategoriyasi, buyruq mayli, kelishik kategoriyasi, murojaat kelishigi.

Dars rejasi:

1. Infinitiv;
2. Fe‘l asosi
3. Buyruq mayli
4. Murojaat kelishigi.

क्रिया का साधारण रूप

Fe‘lning noaniq shakli – infinitiv ना qo‘shimchasiga egadir.

M-n:

करना qilmoq लिखना yozmoq

पढ़ना o‘qimoq आना kelmoq

Hamma fe‘llar lug‘atlarda infinitiv shaklida beriladi.

Fe‘l asosi

क्रिया का मूल रूप

Infinitivdan ना qo‘shimchasini olib tashlansa, fe‘lning asosi qoladi. M-n:

करना – कर लिखना – लिख

पढ़ना – पढ़ूँ आना – आ

Fe‘l asosi ko‘pgina fe‘l shakllarini yasashda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Buyruq mayli

आज्ञार्थ

Buyruq mayli farmoyish berish, buyurish, iltimos, topshiriq berish, biror ish-harakatni bajarishga undash kabi ma'nolarni anglatadi. U ikkinchi shaxs olmoshlarining har biri uchun alohida shaklga ega.

तू olmoshi uchun buyruq maylining shakli fe'l asosiga teng bo'ladi. M-n:

पढ़ना – o'qimoq (**तू** पढ़ (sen) o'qi!

लिखना – yozmoq (**तू** लिख (sen) yoz!

Buyruq maylining bu shakli yakka shaxsga nisbatan ishlatilib yoki qat'iy hamda qo'pol buyruqni yoki muloyim iltimosni anglatadi.

तुम olmoshi uchun buyruq maylining shakli fe'lning asosiga - **ओ** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. M-n:

करना → (तुम) करो qil/ing/!, qilinglar!

पढ़ना → (तुम) पढ़ो o'qi/ng/!, o'qinglar!

लिखना → (तुम) लिखो yoz/ing/!, yozinglar!

आना → (तुम) आओ kel /ing/kelinglar!

लेना *olmoq*, **देना** *bermoq* fe'llaridan buyruq mayli mustasno tariqada boshqacha tuzilib, **-ओ** qo'shimchasi fe'l asosiga emas, balki ularning birinchi harflariga qo'shiladi. M-n:

लेना → olmoq (तुम) लो ol/ing/!, olinglar

देना → bermoq (तुम) दो ber/ing/!, beringlar!

Buyruq maylining bu shakli yakka shaxsga, yoki ko'pchilikka /tengdoshlar o'rtasida, aka-singillariga, er o'z rafiqasiga, otanalar bolalariga/nisbatan ishlatishi mumkin. Bu shakl odatdagi muomalani anglatadi. O'zbek tiliga buyruq maylining bu shakli 2-shaxsdagi birlik yoki ko'plik holida tarjima qilinadi.

3. आप olmoshi uchun buyruq maylining shakli fe'l asosiga -

इये qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. M-n:

पढ़ना → (आप) पढ़िये o'qing! Marhamat qilib o'qing!

लिखना → (आप) लिखिये yozing! Marhamat qilib yozing!

To'rtta fe'l qoidadan mustasno, bular quyidagilar:

देना – *bermoq*, लेना – *olmoq*, करना – *qilmoq*, पीना – *ichmoq*.

Ularning dastlabki uchtasidan buyruq mayli so'zning birinchi harfiga

-ईजिये qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. M-n:

दीजिये bering! Marhamat qilib bering!

लीजिये oling! Marhamat qilib oling!

कीजिये qiling! Marhamat qilib qiling!

पीना *ichmoq* fe'lidan buyruq mayli fe'l asosiga -जिये qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. M-n:

पीजिये – iching! Marhamat qilib iching !

Buyruq maylining bu shakli yakka shaxsga, yoki ko'pchilikka nisbatan ishlatilib, muloyim buyruq, iltimosni anglatib keladi.

Olmosh	Buyruq mayli qo'shimchalari
तू	-
तुम	-ओ
आप	-इये, -ईजिये, -जिये

Buyruq maylining infinitivga teng bo'lgan shakli ham mavjud bo'lib, u तू va तुम olmoshlari bilan birga ishlatiladi. Bu shakl qo'pol buyruq, qat'iy iltimos, ta'kid yoki ogohlantirish ma'nolarini anglatadi. M-n:

उठना turmoq जरा उठना tur ! Qani turginchi !

आना kelmoq इधर आना bu yoqqa kelginchi !

Buyruq maylining yana bir nechta shakllari mavjud bo'lib, ular juda kam ishlatiladi.

Buyruq maylining inkor shakli **मत** va **न** inkor yuklamalari yordamida ifodalanadi. Odatda **तू** va **तुम** bilan **मत** yuklamasi, **आप** va infinitiv shakli bilan esa – **न** yuklamasi ishlatiladi. M-n:

मत लिख yozma !

मत लिखो yozma ! yozmanglar !

न लिखिये yozmang ! iltimos, yozmang !

न लिखना yozmang ! yozilmasin !

Murojaat kelishigi

सम्बोधन-कारक

Murojaat kelishigi nutq qaratilgan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Hindiy tilida murojaat kelishigi otning soni va tugagan harfiga ko'ra turlicha yasaladi. Undoshlar bilan hamda **-आ** dan boshqa barcha unlilar bilan tugagan otlar murojaat kelishigida kelganda birlikda o'zgarishsiz qoladi, ko'plikda esa **-ओ** qo'shimchasini qabul qiladi. M-n:

मित्र, इधर आओ – Do'stim, bu yoqqa kel.

मित्रो, इधर आओ – Do'stlar, bu yoqqa keling.

-आ harfi bilan tugagan otlarning so'nggi harfi murojaat kelishigida birlikda **ए** ga, ko'plikda esa **ओ** ga aylanadi. M-n:

लड़के, इधर आओ – Ey bola, bu yoqqa kel.

लड़को, इधर आओ – Bolalar, bu yoqqa kelinglar.

-ई bilan tugagan otlar murojaat kelishigida ko'plikda **-यो** qo'shimchasini qabul qiladilar va cho'ziq **ई** harfi qisqa **इ** ga aylanadi. M-n:

साथियो, इधर आओ – O'rtoqlar, bu yoqqa kelinglar.

Murojaat (chaqirv) kelishigi. Ot va olmoshlar orqali biron bir shaxsga murojaat qilishga (chaqirishga) yoki ogohlantirishga qaratilgan holatga murojaat (chaqiruv) kelishigi deyiladi. Masalan:

- (क) माँ! देखो, चाँद निकल आया।
- (ख) चपरासी! फाइल लाओ।
- (ग) खबरदार! सौर मचाया तो सजा मिलेगी।
- (घ) हे भगवान! रक्षा करो।

Yuqoridagi gaplarda “ona”, “xizmatkor”ga murojaat qilingan va shuningdek, bolalar shovqin ko‘tarmasligiga **खबरदार** kelishik kategoriyasiga oid so‘z qo‘llanilgan. Demak, bular murojaat kelishigidir. Bularni हे kabi shakllar orqali anglashimiz mumkin. Shuningdek, murojaat so‘zlaridan so‘ng undov (!) belgisi qo‘yilish holati orqali ham anglab olishimiz mumkin. Ba’zi jumalalarda हे, अरी, री, अरे kabi murojaat kelishigiga oid so‘zlar eliziya hodisasiga uchrasa, unda murojaat etilayotgan otlarga xos so‘zlar kuchli talaffuz etiladi. Yuqoridagi (k) va (kha) qatorida berilgan gaplar tarkibida buni uchratish mumkin.

बातचीत

- नमस्ते।
- नमस्ते।
- बैठिये। आज कौन इयूटी पर है ?
- आज मैं इयूटी पर हूँ।
- आपका नाम क्या है ?
- मेरा नाम अनवर है।
- आज कौन अनुपस्थित है ?
- आज सभी विद्यार्थी उपस्थित हैं।
- अच्छा, बैठिये। आप उठिये। आपका नाम क्या है ?

– मेरा नाम आज़ाद है।
– आज़ाद, आज कौन-सी तारीख है ?
– आज दस अक्टूबर है।
– ठीक है। बैठिये। अपनी-अपनी कापी खोलिये और लिखिये “आज दस अक्टूबर है।” ध्यान से लिखिये।

– आपका नाम क्या है?
– मेरा नाम अनवर है।
– आपकी जाति क्या है?
– मेरी जाति उज़बेक है।
– अनवर, बताइये, आज कौन-सा दिन है?
– आज सोमवार है।
– क्या ठीक है? क्या आज सोमवार है?
– जी नहीं, यह ठीक नहीं है। आज मंगलवार है।
– ठीक है। आज मंगलवार है। लिखिये “आज मंगलवार है”- अच्छा अब अपनी-अपनी कापी बन्द कीजिये। अपनी-अपनी पुस्तक खोलिये। आज़ाद, आप पढ़ना शुरू कीजिये।

– “यह क्या है? यह कमरा है। कमरे में क्या-क्या है? कमरे में मेज़, कुर्सी और अलमारी है।”

– अच्छा, काफी है। बैठिये। करीम, आप आगे पढ़िये।
– “मेज़ पर मेज़पोश है। मेज़ पर फूलदान है। फूलदान में फूल है। यह फूल बहुत सुन्दर है।”

– अच्छा, बस कीजिये। सलीमा, आगे आप पढ़िये। सब ध्यान से सुनिये।

– “दीवार पर चित्र है। कमरे में बहुत उजाला है।”

– अच्छा, काफी है। अब सब अपनी-अपनी पुस्तक बन्द कीजिये।
आज़ाद, बताइये, आपके कमरे में क्या-क्या है?

– मेरे कमरे में मेज़, कुर्सी और पलंग है। पलंग पर बिस्तर है। मेज़
पर सफेद मेज़पोश है। फर्श पर लाल कालीन है। दीवार पर बड़ा चित्र है।

– काफी है। अच्छा, बैठिये। लीजिये, इंटेर्वल की घंटी बज गयी।
पुस्तक और कापी बन्द कीजिये और बेग में रखिये। नमस्ते, साथियो।

– नमस्ते।

अभ्यास १ – Quyidagi fe'llardan buyruq mayli yasang.

लिखना, पढ़ना, सुनना, बताना, खोलना, बन्द करना, रखना, बैठना,
उठना, लेना, देना, पीना।

Namuna: लिखना – लिख, लिखो, लिखिये, लिखना।

अभ्यास २ – Ko'chirib yozing va tarjima qiling.

१. अनवर, यह आपका चित्र है? जी नहीं, यह मेरा चित्र नहीं है। २.
फूलदान मेज़ पर रखो। ३. उठिये, यहाँ न बैठिये। ४. आज सोमवार है। ५.
यह बातचीत ध्यान से सुनना। ६. मेज़ पर सफेद मेज़पोश है। ७. तुम
आगे मत पढ़ो। ८. यह ठीक नहीं है। ९. आज मंगलवार है। १०. आज कौन
अनुपस्थित है? आज करीम अनुपस्थित है। ११. आज मैं ड्यूटी पर नहीं
हूँ। आज आज़ाद ड्यूटी पर है। १२. सलीमा, तुम बताओ, आज कौन-सा
दिन है? आज सोमवार है। १३. बताइये, आज कौन-सी तारीख है? आज
दस अक्टूबर है। १४. कमरे में खिड़की (deraza) है। १५. फर्श पर क्या है?
फर्श पर बड़ा लाल कालीन है। १६. अपनी-अपनी पुस्तक खोलो और
“बातचीत” पढ़ो। १७. आपका नाम क्या है? मेरा नाम सलीमा है। आपकी
जाति क्या है? मेरी जाति उज़बेक है। १८. बताओ, क्या यह ठीक है? जी
हाँ, यह ठीक है। १९. काफी है। बैठो। २०. तुम बैठो और यह “बातचीत”

अपनी कापी में लिखो। २१. लाल कलम मेज़ पर रखना। २२. यह कापी दीजिये। २३. दरवाज़ा (eshik) बन्द करना। २४. बिस्तर पलंग पर रखो। २५. मुँह (menga) यह सुन्दर चित्र दीजिये।

अभ्यास ३ – Hindiy tiliga tarjima qiling.

1. Bu Sizning xonangizmi? Ha, bu mening xonam. 2. Mening xonam yorug'. 3. Marhamat qilib aytingchi, Sizning o'rtog'ingiz qayerda? Mening o'rtog'im xonada. 4. Qizil qalam va ruchkani u yerga, stolga qo'y. 5. Diqqat bilan yoz. 6. Bu devor oq (rangli). 7. Devorda katta chiroyli rasm bor. 8. Bu noto'g'rimi? Ha, bu noto'g'ri. 9. Bugun kim navbatchi? Bugun men navbatchiman. 10. Bugun hamma bormi? Ha, bugun hamma bor. 11. Lug'atni papkaga soling. (qo'ying). 12. O'rtoqlar, kitoblaringizni oching(lar). 13. Eshikni yoping. 14. Davomini yozmang. 15. Bu kimning karavoti? Bu mening karavotim. 16. Aytingchi, bugun qaysi sana? 17. Lug'atni yop. 18. Marhamat qilib diqqat bilan o'qing. 19. Polda katta gilam bor. 20. Kitob, daftar va darslikni shkafga qo'ying. 21. O'qi. 22. O'tir. 23. Gulni guldonga qo'ying. 24. Bu gul qizildir. 25. U gul oqdir.

अभ्यास ४ – Bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirib, gaplarni o'qing, ko'chirib yozing va tarjima qiling.

१. अपनी-अपनी...। २. "बातचीत" ध्यान से... -- ३. आज सब विद्यार्थी ... -- ४. आज . . . तारीख है? आज . . . अक्टूबर है। ५. मेरी कापी और पेंसिल मेज़ पर . . . -- ६. दीवार पर . . . है। ७. खिड़की . . . और दरवाज़ा . . . । ८. मेज़ पर . . . है। ९. आज . . . कौन है? आज मैं . . . हूँ। १०. करीम तुम . . . मत पढ़ो।

अभ्यास ५ – So'z va so'z birikmalarini tarjima qiling. Ulardan gaplar tuzing.

Shkafda, xonada, oq devor, daftarga yozmoq, kitob o'qimoq, navbatchilik qilmoq, stolga qo'ymoq, yetarli, to'g'ri, diqqat bilan eshitmoq.

अभ्यास ६- Savollarga javob bering.

१. मेज़ पर क्या है? २. फूलदान कहाँ है? ३. फूलदान में क्या है? ४. यह किसका फूलदान है? ५. फर्श पर क्या है? ६. पलंग पर क्या है? ७. कमरे में क्या-क्या है?

AUDIO MASHG'ULOT

बाजार

- पिताजी : राकेश, चल। बाजार चल। महेश, चल। बाजार चल।
राकेश : पिताजी, बाजार चलिये। पिताजी, कार से बाजार चलिये।
पिताजी : यह कमलानगर है। राकेश देख। बाजार देख। महेश देख। बाजार देख। राकेश और महेश देखो। बाजार देखो। यह देखो। खिलौनों की दुकान।
महेश : पिताजी चलिये। पिताजी खिलौनों की दुकान चलिये।
पिताजी : राकेश, आ। महेश, आ। खिलौनों की दुकान चलो।
महेश : अंकल जी (दुकानदार से)। मुझे कार दिखाइए। मुझे लाल कार दिखाइए।
राकेश : मुझे बंदूक दिखाइए।
दुकानदार : लो, कार देखो। लो, बंदूक देखो। आओ, अंदर आओ। आराम से बैठो। अंदर बैठो।
महेश : अंकल जी, मुझे कोई अच्छा खिलौना दिखाइए।
दुकानदार : यह देखो हवाई जहाज।
महेश : मुझे यह हवाई जहाज दे दो। पिताजी, मैं यह हवाई जहाज ले हूँ?
पिताजी : ले लो। (दुकानदार से) अई साइब, ये हवाई जहाज दे दीजिये।
महेश : पिताजी, आप यह पैस देखिये। पिताजी, आप यह पैस लेजिये।
राकेश : पिताजी, अब घर चलिये। पिताजी, घर से घर चलिये।

Buyruq maylida fe'llarning shakli

जाना	जाइए	जाओ	जा
आना	आइए	आओ	आ
चलना	चलिए	चलो	चल
लेना	लीजिए	लो	ले
देना	दीजिए	दो	दे
लाना	लाइए	लाओ	ला
देखना	देखिए	देखो	देख
खाना	खाइए	खाओ	खा
करना	कीजिए	करो	कर
पढ़ना	पढ़िए	पढ़ो	पढ़
रहना	रहिए	रहो	रह

O‘NINCHI DARS

दसवाँ पाठ

OTLARNING KO‘PLIGINI YASASH. KO‘PLIKNI ANGLATUVCHI LEKSIK VOSITALAR. EGALIK OLMOSHLARI

Darsning maqsadi: Ushbu mavzuning maqsadi talabalarga asosiy o‘rganilayotgan til (hindiy tili)da otlarning ko‘plik shakli qanday yasalishini o‘rganish. otlarning jins va tugagan qo‘shimchasiga qarab ko‘pligini yasash, ko‘plikni anglatuvchi leksik vositalar bilan tanishtirish, egalik olmoshlarining yasalishini tushuntirish.

Tayanch tushunchalar: Son kategoriyasi, birlik, ko‘plik jins, sanskrit otlari, ko‘plikni yasovchi leksik birliklar, egalik olmoshlari.

Dars rejasi:

- 1.Otlarning ko‘pligini yasash.
- 2.Otlarning kelishiklari.
- 3.Muzakkar jinsdagi otlar ko‘pligini yasash.
- 4.Muannas jinsdagi otlar ko‘pligini yasash.
- 5.Ko‘plikni anglatuvchi kelsik birliklar.

Hindiy tilida otlarning ikki soni mavjud: birlik va ko‘plik. Otlarning ko‘pligi ularning jinsiga ko‘ra turlicha yasaladi.

Barcha undoshlar bilan tugagan, shuningdek, -आ dan boshqa hamma unlilar bilan tugagan muzakkar jinsidagi otlar birlikda ham, ko‘plikda ham bir xil shaklga ega bo‘ladi. M-n:

मित्र do‘st, do‘stlar

चित्र tasvir, tasvirlar

विद्यार्थी talaba, talabalar

आ yoki आँ bilan tugagan muzakkar jinsidagi otlarning so‘nggi harflari tegishli holda ko‘plikda ए va ऐ ga aylanadi.

M-n:

कमरा xona कमरे xonalar

बेटा o'g'il बेटे o'g'illar

कुआँ quduq कुएँ quduqlar

-आ bilan tugagan muzakkar jinsidagi sanskrit otlari qoidadan mustasno holda ko'plikda o'zgarishsiz qoladi. M-n:

नेता dohiy, rahbar नेता dohiylar, rahbarlar

पिता ota पिता otalar

-इ va -ई dan boshqa unlilar, shuningdek, barcha undoshlar bilan tugagan muannas jinsdagi otlar ko'plikda -एँ qo'shimchasini qabul qiladi. M-n:

पुस्तक kitob पुस्तके kitoblar

माता ona माताएँ onalar

वस्तू narsa वस्तुएँ narsalar

-इ va -ई bilan tugagan muannas jinsdagi otlar ko'plikda -याँ qo'shimchasini qabul qiladi. Shu bilan birga otning o'zagidagi so'nggi cho'ziq ई harfi qisqa इ ga aylanadi. M-n:

कुसी stul कुसियाँ stullar

कापी daftar कापियाँ daftarlar

-या bilan tugagan muannas jinsdagi otlardan ko'plik yasalganda uning so'nggi harfi burunlashadi. M-n:

गुड़िया qo'g'irchoq गुड़ियाँ qo'g'irchoqlar

चिड़िया qush चिड़ियाँ qushlar

Arab-fors tillaridan kirib kelgan ayrim -या bilan tugagan otlar qoidadan mustasno tariqasida ko'plikda एँ qo'shimchasini oladi. M-n:

कन्या qiz कन्याएँ qizlar

Otlarning ko'plik qo'shimchalari jadvali

Jins लिंग	एकवचन	बहुवचन
पुल्लिंग Muzakkar jinsi	1. आ dan boshqa unilar va barcha undoshlar! 2. आ 3. आँ	o'zgarishsiz qoladi ए एँ
स्त्रीलिंग Muannas jinsi	1. इ va ई dan boshqa unli va barcha undoshlar! 2. इ, ई 3. या	ऐ याँ (ँ)

Hindiy tilida hurmatni bildirish uchun ham birlik o'rniga otlarning ko'pligi ishlatiladi. M-n: उस का लड़का आया – uning o'g'li keldi va गाँधी जी के लड़के आये हैं- Gandining bolalari(bolasi) keldila, yoki तू बच्चा है- sen bolasan va तुम बच्चे हो- siz bolasiz – gaplarida लड़का (bola) so'zi लड़के (bolalar), बच्चा (bola) so'zi बच्चे (bolalar) holida ishlatilgan. लड़के yoki बच्चे ko'plik forma bo'lib, aslida ular yakka va bu yerda hurmat ma'nosini bildirish uchun shu formada ishlatilgan.

KO'PLIKNI ANGLATUVCHI LEKSIK VOSITALAR

बहुवचन बनाने के शब्द

Yuqoridagi qo'shimchalardan tashqari ko'plikni anglatuvchi boshqa leksik vositalar ham bor. Bular गण – so'z-suffiksi va लोग – yordamchi so'zi bo'lib, ularning so'zma-so'z tarjimai «odamlar», «xaloyiq» ma'nosini anglatadi.

गण – so'z-suffiksi sanskrit otlariga qo'shib ishlatiladi. M-n:

श्रोता tinglovchi श्रोतागण tinglovchilar

मित्र do'st मित्रगण do'stlar

लोग yordamchi so'zi faqat odamlarga nisbatan qo'llanilib, birlik va ko'plik shakli bir xil bo'lgan muzakkar jinsidagi otlarga qo'shilib keladi. M-n:

मज़दूर ishchi, ishchilar

मज़दूर लोग ishchilar

लोग ko'plikdagi kishilik olmoshlariga ham qo'shilib kelishi mumkin. M-n:

हम – biz

हम लोग – bizlar

तुम – sen/bir kishi/

तुम लोग – sizlar

आप – Siz/bir kishi yoki

आप लोग – Sizlar

guruh/

वे – ular

वे लोग – ular /ko'pchilik/

EGALIK OLMOSHLARI

स्वामिता – बोधक सर्वनाम

Hindiy tilida quyidagi egalik olmoshlari mavjud:

मेरा mening हमारा bizning

तेरा sening तुम्हारा sening, sizning

आपका Sizning

इसका buning इनका bularning

उसका uning उनका ularning

Egalik olmoshlari o'zlariga tegishli otlarning jinsi va soniga qarab o'zgaradi. Muzakkar jinsda ularning so'nggi harfi birlikda - **आ**, ko'plikda esa -**ए** bo'ladi, muannas jinsda doim **ई** harfi yoziladi. M-n:

मेरा कमरा mening xonam

मेरे कमरे mening xonalarim

तेरी पुस्तक sening kitobing

तेरी पुस्तकें sening kitoblaring

Egalik olmoshlari gapda aniqlovchi, yoki ot-kesimning ot bo'lagi bo'lib keladi. M-n:

यह हमारा कमरा है। – Bu bizning xonamiz.

यह कमरा हमारा है। – Bu xona bizniki/dir/.

बातचीत

– नमस्ते, साथियो।

– नमस्ते।

– बैठिये। आज कौन इयूटी पर है ?

– आज मैं इयूटी पर हूँ।

– बताइये, आपका नाम क्या है ?

– मेरा नाम सलीमा है।

– सलीमा आज कौन अनुपस्थित है?

– आज दो विद्यर्थी अनुपस्थित हैं। अज़ीज़ अनुपस्थित है और उमीद भी अनुपस्थित है।

– क्या मालूम है, कि वे दोनों क्यों अनुपस्थित हैं ?

– जी हाँ, वे दोनों बीमार हैं।

– अच्छा, बैठिये। अनवर, बताइये, आज कौन-सी तारीख है ?

– आज तेरह अक्टूबर है।

– ठीक है। बैठिये। आज कौन-सा दिन है? करीम, आप बताइये।

– आज शुक्रवार है।

– ठीक है। बैठिये। करीम, आप उठिये। बताइये, इनका नाम क्या है ?

– इनका नाम सलीमा है।

– सलीमा, उठिये। मेरी मेज़ पर देखिये। मेरी मेज़ पर क्या-क्या है ?

– आपकी मेज़ पर पुस्तकें, कापियाँ, शब्दकोश, पेंसिलें, कलम और पाठ्य – पुस्तकें हैं।

– अच्छा, बैठिये। आप बताइये, हमारे कमरे में कितनी मेज़ें और कुर्सियाँ हैं ?

– हमारे कमरे में पाँच मेज़ें और नौ कुर्सियाँ हैं।

– क्या इनका उत्तर ठीक है ?

– जी हाँ, इनका उत्तर ठीक है।

– अब आप बताइये, यहाँ कितने लड़के और कितनी लड़कियाँ हैं ?

– यहाँ तीन लड़के और चार लड़कियाँ हैं।

– दीवार पर क्या है ?

– दीवार पर एक चित्र है।

– आपकी मेज़ पर क्या-क्या है ?

– मेरी मेज़ पर एक कलम, दो कापियाँ और दो पुस्तकें हैं।

– ठीक है, बैठिये। साथियो, अब अपनी-अपनी कापियाँ खोलिये। लिखिये" "आज तेरह अक्तुबर है। आज शुक्रवार है।" आगे लिखिये" "यह कमरा है। यह हमारा कमरा है। यह भी हमारा कमरा है। ये दोनों कमरे हमारे हैं। एक कमरे में एक मेज़, चार कुर्सियाँ, एक पलंग और एक अलमारी है। अलमारी में बहुत-सी पुस्तकें, पत्रिकाएँ और समाचार-पत्र हैं। "आज इतना काफी है। अब कापियाँ बन्द कीजिये। आज्ञाद, आप गिनती सुनाइये।

– एक, दो, तीन, चार, पाँच, छ", सात, आठ, नौ, दस।

– ठीक है। अच्छा, बैठिये। इंटरवल की घंटी बज गयी। आराम कीजिये। नमस्ते, साथियो।

– नमस्ते।

अभ्यास १ – Quyidagi otlarning ko‘pligini yasang.

पुस्तक *m-s*. कमरा *m-r*. विद्यार्थी *m-r*. फूल *m-r*. दीवार *m-s*.

कापी *m-s*. दरवाज़ा *m-r*. अध्यापक *m-r*. फूलदान *m-r*. राजा *m-r*.

बेग *m-r*. खिड़की *m-s*. चित्र *m-r*. फर्श *m-r*. पिता *m-r*.

मेज़ *m-s*. मित्र *m-r*. बिस्तर *m-r*. अलमारी *m-s*. चिड़िया *m-s*.

कुर्सी *m-s*. नाम *m-r*. पलंग *m-s*. पेंसिल *m-s*. दिन *m-r*.

नेता *m-r*. बेटा *m-r*. बेटी *m-s*. माता *m-s*. कालीन *m-r*.

अभ्यास २ – Gaplarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling.

१. वहाँ, मेज़ पर पुस्तकें और पत्रिकाएँ हैं। २. आपके समाचार-पत्र कहाँ हैं? मेरे समाचार-पत्र तुम्हारी मेज़ पर हैं। ३. ये लड़के हमारे मित्र हैं। ४. उसका नाम क्या है? उसका नाम कमोला है। ५. इनका नाम रमेश है। ६. क्या उसका मित्र यहाँ है? जी नहीं, उसका मित्र यहाँ नहीं है। ७. आज तीन विद्यार्थी अनुपस्थित हैं। ८. मालूम है, कि वे बीमार हैं। वे बीमार हैं। ९. वे कहाँ हैं, यह मालूम है? जी नहीं, मालूम नहीं है। १०. कमरे में कितनी कुर्सियाँ हैं? कमरे में दो कुर्सियाँ हैं। ११. तुम्हारे बेग में कितनी पुस्तकें और कापियाँ हैं? मेरे बेग में तीन पुस्तकें और तीन कापियाँ हैं। १२. सब शब्दकोश इसकी मेज़ पर रखो। १३. ये किसकी पत्रिकाएँ हैं? ये पत्रिकाएँ हमारी हैं। १४. आप गिनती सुनाइये। सुनिये" एक, दो, तीन, चार, पाँच। १५. क्या यह लड़का बीमार है? जी हाँ, यह लड़का बीमार है। १६. तेरा उत्तर ठीक नहीं है। १७. तुम दोनों बीमार हो। १८. दीवार पर देखो, दीवार

पर क्या है? दीवार पर चित्र है। १९. यहाँ किसका समाचार – पत्र है? यह हमारा समाचार-पत्र है। २०. वह उनका मित्र है। २१. कमरे में बहुत-सी लड़कियाँ हैं।

अभ्यास ३ – Hindiy tiliga tarjima qiling.

1. Isming nima? Mening ismim Salima. 2. Sening javoblaring to'g'ri emas. 3. Marhamat qilib bu jurnallarni o'qing. 4. Hozir ularning qayerdaligi sizga ma'lummi? Yo'q, noma'lum. 5. Uning xonasida nechta eshik va derazalar bor? Uning xonasida ikki deraza va bir eshik bor. 6. Guldonda uchta qizil va ikkita oq gul bor. 7. Bu sening xonang. 8. Marhamat qilib, bu yerga stol va ikkita stul qo'ying. 9. Bu lug'atlar va u papkani bizning shkafimizga qo'yima. 10. Do'stlar, o'tiring va bu gazetalarini o'qing. 11. Mening do'stlarim ruslar. 12. Bu talabalar o'zbeklardir. 13. Derazalarni oching. 14. Kitoblarni oching. 15. Daftarlarni yoping. 16. Eshiklarni yoping. 17. Marhamat qilib shkafni oching va u yerga bu darsliklarni qo'ying. 18. Sizning stolingizda oq dasturxon bor. 19. Uning xonasida bir qiz bor. 20. Bu talabalar uning do'stlaridir. 21. Uning do'sti rus. 22. Ularning o'qituvchisi hindistonlik. 23. Bu bizning o'qituvchimiz. 24. Bu kimning xonalari? Bu uning xonalari.

अभ्यास ४- So'z va so'z birikmalari yordamida gaplar tuzing.

तुम्हारा उत्तर, उसकी पत्रिकाएँ, गिनती सुनाना, सात लड़के, लड़के और लड़कियाँ, कितने, देखना, बीमार होना, मालूम है कि।

अभ्यास ५ – Quyidagi so'z birikmalarini tarjima qiling.

Stollar va stullar
jurnallar va gazetalar
daftarlar va jurnallar
darsliklar va daftarlar
tasvirlar va devorlar

o'g'il bolalar va qiz bolalar
gazetalar va kitoblar
lug'atlar va darsliklar
stollar va karavotlar
pollar va devorlar

gilamlar va karavotlar
ruchkalar va qalamlar
ruslar va o'zbeklar
xonalar va derazalar
gul va guldon
hindlar va o'zbeklar

o'rin-ko'rpalar va karavotlar
o'qituvchilar va talabalar
papkalar va lug'atlar
eshiklar va pollar
o'zbeklar va hindlar
dasturxonlar va gullar

अभ्यास ६ – Bo'sh joylarga egalik olmoshlarini qo'ying.
Gaplarni ko'chirib yozing va tarjima qiling.

१ . . . मित्र विद्यार्थी है। २ . . . कमरे में बहुत उजाला है। ३ . . . कापियाँ मेज़ पर नहीं हैं। ४ . . . समाचार-पत्र वहाँ . . . अलमारी में रखो। ५ . . . मेज़ पर कलम न रखना। ६ . . . अध्यापक उज़बेक हैं। ७ . . . कमरे में क्या-क्या है? . . . कमरे में पलंग और मेज़ है। ८ . . . पाठ्य – पुस्तक और शब्दकोश अलमारी में नहीं हैं। ९. तेरा नाम क्या है? . . . नाम कमोला है। १० . . . मित्र उज़बेक है। ११ . . . पलंग पर बिस्तर नहीं है। १२ . . . मेज़ पर बड़ा फूलदान है। १३ . . . बेग मेज़ पर है।

अभ्यास ७ – Hindiy tiliga tarjima qiling (og'zaki).

